

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
13-son qarori**

2023-yil 1-avgust

Toshkent shahri

soat 10:00

Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kворum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 1-avgust kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosarini tayinlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

Yagona aksiyador tomonidan Normuratov Bahodir Baxtiyorovich nomzodi jamiyat boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari lavozimiga tavsiya qilindi.

B. Normuratovning tarjimai holi va mehnat faoliyati bilan yig‘ilish qatnashchilari tanishtirildi (*ma’lumotnoma ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 59-moddasi hamda jamiyat ustavining 10.6-bandi “i” qismiga asosan Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni hamda B. Normuratovning arizasini inobatga olgan holda, Normuratov Bahodir Baxtiyorovichni jamiyat boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari (sanoatda axborot texnologiyalari, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mahalliyashtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha) vazifasini bajaruvchi etib tayinlash va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasini (shartnomani amal qilish muddati – tanlov natijasi e’lon qilingunga qadar) tuzish taklif qilindi (*B. Normuratovning 2023-yil 1-avgustdagi arizasi ilova qilinadi*).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori qaror qiladi:


1. Normuratov Bahodir Baxtiyorovich 2023-yil 1-avgust kundan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari (sanoatda axborot texnologiyalari, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mahalliyashtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha) vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin va u bilan belgilangan tartibda (shartnomani amal qilish muddati – tanlov natijasi e’lon qilingunga qadar) mehnat shartnomasi tuzilsin.

2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi B. Normuratov bilan mehnat shartnomasini imzolash vakolati yagona aksiyador – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisiga berilsin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) Normuratov Bahodir Baxtiyorovich bilan mehnat shartnomasini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda tasdiqlash uchun kiritсин.

4. Jamiyatning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o'tkazish tartibiga muvofiq jamiyat boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari lavozimiga o'rnatilgan tartibda tanlov e'lon qilinsin hamda tanlov natijasi bo'yicha nomzodlardan kelib tushgan takliflar kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023-yil 1-oktabr kuniga qadar yagona aksiyadorga kiritilishi ta'minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
"O'zkimyosanoat" AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.**



T. Muxamedjanov